



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM




TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

12 (86) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (86)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2025 декабрь

Received: 20.11.2025, Accepted: 06.12.2025, Published: 10.12.2025

УДК 616.89-008.441.13:616.8-009

“OPIOIDLAR VA SINTETIK KATIONLARGA BOG‘LIQ POLIQARAMLIKDA KOGNITIV FUNKSIYALAR BUZILISHINING O‘ZIGA XOSLIKLARI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI”

Rustamova M.Sh. <https://orcid.org/0009-0009-6022-1853>

“Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy ruhiy salomatlik tibbiyot markazi”.
Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar qo‘rg‘oni, Orom ko‘chasi 1- uy.

✓ *Rezyume*

Opioidlarga va sintetik kationlarga poliqaramlik bilan og‘rigan bemorlarda kognitiv jarayonlar dinamikasini o‘rganishga qaratilgan klinik-psixologik va eksperimental tadqiqot natijalari, ushbu moddalardan yakka tartibda foydalanadigan shaxslarning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslaganda, diqqatning beqarorligi, uni jamlash qobiliyatining keskin pasayishi, shuningdek, eslab qolish jarayonlarining zaiflashuvi natijasida uzoq muddatli xotiraning yomonlashuvini aniqladi. Kognitiv buzilishlar darajasi va poliqaramlik bosqichi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Opiodlarni yakka tartibda iste‘mol qiladigan shaxslarda kognitiv funksiyalarning nisbatan yaxshiroq saqlanganligi shuni ko‘rsatadiki, poliqaramlikdagi kognitiv yetishmovchilikning asosiy sababi, avvalo, sintetik kationlar guruhiga mansub psixostimulyatorlarni iste‘mol qilish bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: poliqaramlik, opioidlar, sintetik kationlar, kognitiv buzilishlar.

ОСОБЕННОСТИ И ДИНАМИКА НАРУШЕНИЙ КОГНИТИВНОЙ СФЕРЫ ПРИ ПОЛИЗАВИСИМОСТИ ОТ ОПИОИДОВ И СИНТЕТИЧЕСКИХ КАТИНОНОВ

Рустамова М.Ш. <https://orcid.org/0009-0009-6022-1853>

Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр психического здоровья. Ташкентская область, Кибрайский район, посёлок Салар, улица Ором, дом 1.

✓ *Резюме*

Проведённое клинико-психологическое и экспериментальное исследование динамики когнитивных процессов у пациентов с полизависимостью от опиоидов и синтетических катинонов, сопоставленное с показателями лиц, употребляющих данные наркотики изолированно, выявило выраженную неустойчивость внимания, значительное снижение его концентрации и ухудшение долговременной памяти вследствие ослабления процессов запоминания. Установлена статистически значимая взаимосвязь между степенью выраженности когнитивных нарушений и стадией полизависимости. Относительно более сохраняемые когнитивные показатели при моноупотреблении опиоидов позволяют заключить, что ведущий вклад в формирование когнитивного дефицита при полизависимости связан преимущественно с употреблением психостимуляторов группы синтетических катинонов.

Ключевые слова: полизависимость, опиоиды, синтетические катиноны, когнитивные расстройства.

FEATURES AND DYNAMICS OF COGNITIVE IMPAIRMENTS IN POLYSUBSTANCE DEPENDENCE ON OPIOIDS AND SYNTHETIC CATHINONES

Rustamova M.Sh. <https://orcid.org/0009-0009-6022-1853>

Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Mental Health.
Tashkent Region, Qibray District, Salar Settlement, Orom Street, House 1.

✓ **Resume**

The clinical-psychological and experimental study of the dynamics of cognitive processes in patients with polysubstance dependence on opioids and synthetic cathinones, compared with individuals using these substances in isolation, revealed pronounced attentional instability, a significant decrease in concentration, and impairment of long-term memory due to weakened encoding processes. A statistically significant association was established between the severity of cognitive disturbances and the stage of polysubstance dependence. The relatively better preservation of cognitive functioning in cases of opioid monodependence suggests that the primary contribution to cognitive deficits in polysubstance dependence is largely attributable to the use of psychostimulants from the synthetic cathinone group.

Keywords: polysubstance dependence, opioids, synthetic cathinones, cognitive impairments.

Dolzarbligi

B MTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) olib borayotgan monitoring natijalari so'nggi yillarda bir nechta psixoaktiv moddalarni birgalikda iste'mol qiluvchi shaxslar soni izchil ortib borayotganini ko'rsatmoqda [4,10]. Ayniqsa, opioidlar va psixostimulyatorlarga bir vaqtning o'zida qaramlikning tobora keng tarqalayotgani hamda ushbu holatlar bo'yicha davolash samaradorligining past darajada qolayotgani jiddiy xavotir uyg'otadi [2,5,9]. Shuningdek, oxirgi yillarda opiatlar yangi avlod psixostimulyatorlari, jumladan sintetik katinonlar bilan kombinatsiyada qo'llanilishi holatlari sezilarli darajada ko'paymoqda [8]. Bu epidemiologik tendensiya Markaziy Osiyoning deyarli barcha mamlakatlarida, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham muntazam qayd etilib, narkotik vaziyatning murakkablashayotganidan dalolat beradi [6].

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, narkotik moddalarni birgalikda iste'mol qilish qaramlikning klinik manzarasini keskin og'irlashtiradi hamda uning oqibatlarini chuqurlashtiradi. Ushbu oqibatlar ichida kognitiv buzilishlar muhim o'rinlardan birini egallaydi [3]. Monoqaramlik holatlarida esa kognitiv defitsitning og'irligi odatda iste'mol qilingan narkotikning turi, qo'llanilgan dozasi, suiste'mol qilish davomiyligi hamda bemorning premorbid psixologik xususiyatlari bilan izohlanadi [7]. Aksariyat ilmiy tadqiqotlarda kognitiv funksiyalar buzilishining tahlili odatda sog'lom shaxslar bilan taqqoslash asosida olib boriladi va iste'mol qilinayotgan moddaning turini hisobga olmaydi. Bunday yondashuv ko'proq kimyoviy qaramlikning barcha shakllarida kognitiv buzilishlarning umumiy rivojlanish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo'ladi [1]. Shu bilan birga, farmakologik ta'siri turlicha yo'nalishga ega bo'lgan opioidlar va sintetik psixostimulyatorlarga birgalikdagi qaramlikda kuzatiladigan kognitiv buzilishlarning o'ziga xos jihatlari juda kam o'rganilgan. Kognitiv buzilishlarning rivojlanish dinamikasi va ularning ifodalanish darajasi bo'yicha bilimlardagi mavjud bo'shliqlar samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi hamda bemorlarda barqaror kognitiv defitsit shakllanishi xavfini oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi — opioidlar va sintetik katinonlarga poli-qaramlikda kognitiv funksiyalarning o'zgarish dinamikasini o'rganish.

Tadqiqot materiali va uslublari

Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi sharoitida olib borilib, unda klinik hamda eksperimental-psixologik yondashuvlar kompleks tarzda qo'llanildi. Ishda an'anaviy opioidlar (opiy, heroin, tramadol) bilan bir qatorda sintetik katinonlar guruhiga kiruvchi yangi psixostimulyatorlar (mefedron, α -PVP) ni birgalikda iste'mol qiluvchi jami 110 nafar bemor (105 nafar erkak va 5 nafar ayol) qatnashdi. Asosiy guruh ishtirokchilarining yoshi 18–51 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh $33,5 \pm 8,0$ yilni tashkil etdi. Taqqoslash maqsadida yana ikki guruh shakllantirildi: ikkinchi guruhni an'anaviy opioidlarga monoqaram 50 bemor (o'rtacha yosh $35,8 \pm 8,1$ yil), uchinchi guruhni esa sintetik katinonlarga monoqaram 50 bemor (o'rtacha yosh $30,3 \pm 5,8$ yil) tashkil qildi. Uchala guruh jins, yosh va narkotik iste'molining davomiyligi bo'yicha bir-biriga mutanosib bo'lib, ularning solishtirish imkoniyatlarini ta'minladi.

Kliniko-psixopatologik baholash jarayonida bemorlarning ruhiy, nevrologik va somatik holati batafsil o'rganildi. Tadqiqotning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida ularning kognitiv funksiyalarining turli ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilindi.

Eksperimental-psixologik tekshiruv abstinent sindromining barcha belgilari to'liq bartaraf etilib, bemorning somatik holati barqarorlashganidan so'ng, uning ixtiyoriy roziligi asosida o'tkazildi. Diqqatning jamlanishi va barqarorligini baholash uchun klassik Burdon korrektur testidan foydalanildi. Ushbu usulda bemorga 10 daqiqa davomida standart matndan shifokor belgilagan bir yoki ikki harfni (masalan, "K" va "R") topib, ularni chizib tashlash topshirildi. Har bir 60 soniyadan keyin bemor qalamining sahifadagi joriy joylashuvi qayd qilindi, shuningdek topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt doimiy ravishda protokollashtirildi.

Tahlil jarayonida xatolar soni, ish bajarish sur'ati, xatolarning vaqt bo'yicha bir tekis taqsimlanishi yoki tekshiruv oxiriga yaqin ko'payishi kabi mezonlar hisobga olindi. Protokolga 10 daqiqa ichida ko'zdan kechirilgan harflarning umumiy soni, to'g'ri chizib tashlangan belgilar miqdori hamda aslida belgilanishi kerak bo'lgan harflar soni kiritildi. Psixik jihatdan sog'lom yosh shaxslarda diqqatning konsentratsiyasi va barqarorligi me'yoriy ko'rsatkichlari 10 daqiqalik ish davomida 10–15 ta xato bilan cheklanadi. Diqqatning aniqligi, barqarorligi va umumiy produktivligi maxsus baholash shkalasi asosida integrativ tarzda aniqlandi.

Xotira funksiyalarini baholash uchun "10 ta so'zni eslab qolish" metodikasi qo'llanildi. Ushbu usulda bemorga bir xil 10 ta so'z ketma-ket besh marotaba o'qib eshittirildi va har bir o'qishdan so'ng ularni qayta aytib berish so'raldi. Har bir takrorlashdan keyin bemor tomonidan eslab qolingani so'zlar soni qayd etilib, ular asosida xotira egri chizig'i tuzildi. Ushbu egri chiziqning shakli bemorning qisqa muddatli xotira holatini baholash imkonini berdi.

Uzoq muddatli xotira holati esa bemordan 1 soat o'tib, hech qanday takroriy o'qishsiz so'zlarni qayta eslab berishi asosida aniqlangan. Normativ ko'rsatkich sifatida kechiktirilgan qayta aytishda kamida 8–9 ta so'zni eslab qolish qabul qilindi.

Olingan natijalarning ishonchliligi St'yudent t-mezone yordamida baholandi; $p < 0,05$ qiymati statistik jihatdan ishonchli farqlar mavjudligini ko'rsatadigan mezon sifatida qabul qilindi. Miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash maqsadida Pirsonning uyg'unlik koeffitsienti (C) qo'llanildi.

Natijalar va muhokama.

Poliqoramlikning shakllanish omillarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bemorlarning 59,1 foizida dastlab iste'mol qilingan moddalar opioidlar bo'lgan hamda opioidlarga monoqaramlikka keyinchalik sintetik katinonlarning qo'shilishi natijasida poli qoramlikning klinik manzarasi yuzaga kelgan. Qolgan 40,9 foiz bemorlarda esa avval psixostimulyatorlarga monoqaramlik shakllangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan ushbu qaramlik opioid moddalar bilan birgalikda iste'mol qilinadigan shaklga o'tgan.

Tekshiruv vaqtida asosiy guruh bemorlarining 15,5 foizida poli qoramlikning birinchi bosqichi aniqlangan bo'lib, klinik belgilar asosan dastlab iste'mol qilingan modda ta'siri bilan belgilanardi. Bemorlarning 25,5 foizida poli qoramlikning ikkinchi bosqichi kuzatilib, klinik ko'rinishlar opioidlar va psixostimulyatorlarga xos simptomlarning aralash namoyon bo'lishi bilan xarakterlangan. Guruhning 59,0 foizida poli qoramlikning uchinchi bosqichi qayd etilib, klinik manzara jarayonga keyinchalik qo'shilgan moddaning ta'siri tomon siljigan.

Kognitiv funksiyalar (diqqat va xotira)dagi o'zgarishlar har bir bosqichda alohida baholanib, ularning dinamikasi ikkinchi va uchinchi guruhlardagi bemorlarning mos bosqich ko'rsatkichlari bilan solishtirib tahlil qilindi.

Tekshiruvdan o'tgan bemorlarda diqqat funksiyasini baholash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. 1-jadval. Burdon korrektur testida diqqatning jamlanishi va barqarorligi darajasi

Diqqatning jamlanishi va barqarorligi darajasi	1-guruh		2-guruh		3-guruh	
	abs.	%	abs.	%	abs.	%
Yuqori	9	8,2	3	6,0	-	-
O'rtachadan yuqori	10	9,1	18	36,0	8	16,0
O'rtacha	2	1,8	15	30,0	28	56,0
O'rtachadan past	7	6,4	4	8,0	9	18,0
Past	82	74,5	10	20,0	5	10,0
Jami	110	100,0	50,0	100,0	50	100,0

Jadvaldagi natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, diqqatning yuqori darajada jamlanishi va barqarorligi narkotik moddalarga qaram bemorlar orasida juda kam uchraydi: birinchi guruhda bu ko'rsatkich 8,2%, ikkinchi guruhda esa 6,0% bo'lib, guruhlar o'rtasida statistik farq qayd etilmagan ($p>0,05$). "O'rtachadan yuqori" darajadagi diqqat ko'rsatkichi esa asosan opioidlarga monoqaram bemorlar orasida kuzatilgan (36,0%). Bu ko'rsatkich poliqaamlikka ega bemorlar natijalaridan (9,1%; $p<0,001$) hamda psixostimulyatorlarga monoqaram bemorlar ko'rsatkichlaridan (16,0%; $p<0,045$) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Diqqatning "o'rtacha" darajadagi barqarorligi ko'proq psixostimulyatorlarni iste'mol qiluvchi bemorlarda kuzatilgan (56,0%). Opiodlarga monoqaram bemorlarda bu daraja ancha past (30,0%; $p<0,01$), poliqaamlikka ega bemorlarda esa juda kam uchragan (1,8%; $p<0,001$).

Shuningdek, diqqatning pasaygan jamlanishi va beqarorligi bilan tavsiflanadigan past ko'rsatkichlar (o'rtachadan past va past darajalar) poliqaamlikka ega bemorlar guruhida keskin ustunlik qilgan — 80,9%. Aksincha, ikki monoqaram guruhda ushbu ko'rsatkich ancha past bo'lib, ikkala guruhda ham deyarli bir xil — 28,0% atrofida qayd etilgan ($p<0,001$).

Diqqatning jamlanishi va barqarorligi darajasi poliqaamlik bosqichlari bilan statistik jihatdan ishonchli va kuchli bog'liqlikka ega ekani aniqlandi (Pirson uyg'unlik koeffitsienti $C = 0,70$; $p<0,001$). Poliqaamlikning boshlang'ich bosqichida bo'lgan barcha bemorlarda diqqat funksiyasining ko'rsatkichlari yuqori yoki o'rtachadan yuqori darajada qayd etilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichdagi bemorlarning 85,7%ida bu ko'rsatkichlar past darajada aniqlangan. Poliqaamlikning uchinchi bosqichida esa diqqatning sust jamlanishi va beqarorligi 100% bemorlarda kuzatilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, opioidlarga monoqaram bemorlar orasida vaziyat ancha boshqacha kechgan: opioidga qaramlikning ikkinchi bosqichida bo'lgan bemorlarning 57,1%ida diqqat ko'rsatkichlari yuqori (5,7%) yoki o'rtachadan yuqori (51,4%) darajada saqlanib qolgan, past darajadagi ko'rsatkichlar esa atigi 2,9%ni tashkil etgan ($p<0,001$). Diqqatning keskin pasayishi ularda asosan kasallikning uchinchi bosqichida (86,7%; $p<0,001$) kuzatilgan.

Psixostimulyatorlarga monoqaram bemorlar orasida diqqatni jamlashning past darajasi va uning beqarorligi ikkinchi bosqichdayoq ancha ko'p — 28,0% ($p<0,001$) hollarda kuzatilgan. Biroq bu ko'rsatkich poliqaamlikdagi bemorlardagidan sezilarli darajada past bo'lib, birlashtirilgan (opioid + psixostimulyator) iste'mol qiluvchi bemorlardagi buzilishlar bilan taqqoslaganda ancha yengil kechgan.

Uzoq muddatli xotirani baholashda guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar aniqlangan (2-jadval).

2-jadval. "10 ta so'zni eslab qolish" metodikasi yordamida uzoq muddatli xotira buzilishlarining ifodalanish darajasini baholash

Oradan vaqt o'tib, qayta eslatilganda esga tushirilgan so'zlar soni.	1-guruh		2-guruh		3-guruh	
	abs	%	abs	%	abs	%
4-5 ta so'z	39	35,5	1	2,0	-	-
6-7 ta so'z	69	62,7	14	28,0	45	90,0
8-9 ta so'z	2	1,8	35	70,0	5	10,0
Jami	110	100,0	50	100,0	50	100,0

2-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, opioidlar va sintetik katinonlarga poliqaamlik bilan og'rigan bemorlarning deyarli barchasida (98,2%) tekshiruv vaqtida uzoq muddatli xotira buzilishlari aniqlangan, ulardan 35,5%ida esa bu buzilishlar ancha kuchli ifodalangan. Ushbu ko'rsatkichlar opioidlarga monoqaram bemorlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi: mazkur guruhdagi bemorlarning 70,0%ida ($p<0,001$) uzoq muddatli xotira sog'lom shaxslarga xos me'yorlar darajasida saqlangan.

Psixostimulyatorlarga monoqaram bemorlarda esa uzoq muddatli xotiraning o'rtacha darajada pasayishi ancha tez-tez uchraydi, 90,0% holatlarda kuzatilgan. Bu natija opioidlarga monoqaram bemorlarda qayd etilgan ko'rsatkichdan (28,0%; $p<0,001$) bir necha bor yuqori. Aksincha, psixostimulyatorlarga qaram bemorlarning atigi 10,0%ida xotira me'yoriy darajada bo'lgan ($p<0,001$).

Umuman olganda, psixostimulyatorlarni monoiste'mol qiluvchi bemorlarda ham, opioidlar va sintetik katinonlarga poliqaamlikka ega shaxslarda ham uzoq muddatli xotiraning o'rtacha darajada pasayishi eng ko'p uchraydigan holat bo'lib chiqdi. Aksincha, opioidlarni yakka tartibda iste'mol

qiluvchi bemorlarning aksariyatida uzoq muddatli xotira nisbatan yaxshi saqlanib qolganligi kuzatildi. Uzoq muddatli xotira ko'rsatkichlari poliqrarmlikning bosqichlari bilan o'rtacha kuchdagi va statistik jihatdan ishonchli bog'liqlikka ega ekani aniqlandi ($C = 0,38$; $p < 0,001$). Bu holat kasallikning Progressiv rivojlanishi bilan xotira funksiyalarining bosqichma-bosqich susayib borishini ko'rsatadi. Darhaqiqat, poliqrarmlikning birinchi bosqichidan uchinchi bosqichiga o'tishda 4–5 ta so'zni eslab qolish bilan cheklanib qolgan bemorlar ulushi 1,8% dan 30,0% gacha ortgan ($p < 0,001$). Shuningdek, 6–7 ta so'zni qayta eslab bera olgan bemorlarning ulushi ham 12,8% dan 29,1% gacha ko'payib, 17,0%lik o'sishni tashkil etgan ($p > 0,05$).

Xulosa

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, opioidlar va sintetik psixostimulyatorlarga poliqrarmlik holatida kognitiv jarayonlar buzilishi ushbu moddalarni alohida (mono) iste'mol qilishga nisbatan ancha chuqurroq namoyon bo'ladi. Kognitiv buzilishlar, avvalo, diqqatni jamlash qobiliyatining keskin pasayishi, uning beqarorligi hamda uzoq muddatli xotiraning yomonlashuvi, ya'ni eslab qolish imkoniyatlarining susayishi orqali ifodalanadi.

Kognitiv funksiyalarning pasayishi poliqrarmlikning klinik bosqichlari bilan statistik jihatdan ishonchli bog'liq bo'lib, kasallikning og'irlashuvi bilan birga ushbu buzilishlar ham izchil kuchayib boradi. Shuni hisobga olib, opioidlarni yakka tartibda iste'mol qiluvchi bemorlarda kognitiv funksiyalar nisbatan yaxshiroq saqlanib qolishi ehtimoli yuqoriligi, poliqrarmlikda esa kognitiv defitsitning asosan sintetik katinonlar guruhiga mansub psixostimulyatorlar ta'siri bilan bog'liq ekani taxmin qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арзуманов Ю.Л., Березина И.Ю., Игумнов С.А., Михайлов А.Ю. Нейрофизиологический анализ нарушений когнитивных функций у лиц с зависимостью от психоактивных веществ // Воен. Медицина. 2022;4/65:84-92.
2. Асадуллин А.Р., Ахметова Э.А., Ненастьева А.Ю. Катиноны. Новая реальность // Наркология. 2017;1(181):87-92.
3. Винникова М.А., Ненастьева А.Ю., Северцев В.В. Расстройства вследствие употребления нескольких уточненных психоактивных веществ, включая лекарственные средства. - Наркология: национальное руководство / под ред. Н.Н.Иванца, М.А.Винниковой. – 3-е изд. перераб. и доп. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2024; 432-440.
4. Всемирный доклад о наркотиках за 2025 год. – ООН, Нью-Йорк, 2025; 47-62.
5. Киржанова В.В. Эпидемиология наркологических заболеваний. - Наркология: национальное руководство / под ред. Н.Н.Иванца, М.А.Винниковой. – 3-е изд. перераб. и доп. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2024; 23-39.
6. Турсунходжаева Л.А., Баймирова Л.Т. Динамика эпидемиологических показателей наркотической зависимости в Республике Узбекистан за 25-летний период // Сб. тезисов международной конференции «Служба психического здоровья: достижения и перспективы». – Ташкент, 2024; 94-96.
7. Чухловина М.Л. Когнитивные нарушения у лиц, злоупотребляющих психоактивными веществами // Ж. неврологии и психиатрии им. С.С.Корсакова. 2015;115(6):83-85. DOI: 10.17116/jnevro2015156183-85.
8. ADAI. Opioids and Stimulants: What Are They and How Are People Using Them? April 2021 \ K. Michelle Peavy, PhD; Caleb Banta-Green, PhD, MPH, MSW; Mandy Owens, PhD. P1-9.
9. EMCDDA (2020). European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction. Annual Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union. 2020; 4-55 pp.
10. World Drug Report 2023. Available online: www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/world-drug-report-2023.html (accessed on 4 February 2024). Pp13

Qabul qilingan sana 20.11.2025